ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

# KOMIL INSON TARBIYASIDA BUYUKLAR E'TIROFI

**Gulchehra Bozorova,**
**Artiqova Adolat**
NDKTU akademik litseyi o'qituvchilari

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Markaziy Osiyolik mutafakkir shoirlar, qomusiy olimlar Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, sohibqiron Amir Temurlarning komil inson ma'naviyatini shakllatirishga qaratilgan teran g'oyalari haqida, bu dunyoqarashlarning bugungi kundagi ahamiyati haqida ma'lumotlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** munajjimlar, muhaddislar, o'tmish, buyuk siymolar, tarix, nodir va noyob qo'lyozmalar, "Qubbbatul ilm val adab", "Tuzuklar".

**Абстрактный.** В статье рассматриваются глубокие идеи центральноазиатских мыслителей, поэтов, энциклопедистов и ученых Абу Насра аль-Фараби, Ибн Сины и великого Амира Темура, направленные на формирование совершенной духовности человека, а также значение этих мировоззрений в наши дни.

**Ключевые слова:** астрологи, хадисоведы, прошлое, великие личности, история, редкие и уникальные рукописи, «Куббатуль ильм валь адаб», «Тузуклар».

# RECOGNITION OF GREAT PEOPLE IN THE EDUCATION OF A PERFECT HUMAN

**Gulchehra Bozorova,**
**Artikova Adolat**
**Teachers of the Academic Lyceum of the NDKTU**

**Abstract.** This article provides information about the profound ideas of Central Asian thinkers, poets, encyclopedists Abu Nasr Al-Farabi, Ibn Sina, and the great Amir Temur aimed at shaping the perfect human spirituality, and the significance of these worldviews today.

**Keywords:** astrologers, hadith scholars, past, great figures, history, rare and unique manuscripts, "Qubbbatul ilm wal adab", "Tuzuklar".

## Kirish.

Har bir jamiyatning taraqqiyoti va kelajagi, avvalo, uning komil insonlar tarbiyasiga bergan e'tiboriga bog'liq. Komil inson deganda nafaqat bilimli, balki axloqan yetuk, ma'naviy jihatdan boy, el-yurtga foydali shaxs tushuniladi. Tarix davomida buyuk allomalar va mutafakkirlar inson tarbiyasi masalasiga alohida e'tibor qaratgan. Ularning asarlari va fikrlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Aynan shu e'tiroflar bugungi yoshlarni sog'lom ruhda voyaga yetkazishda bebaho manba bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillika erishgach, o'tmishimzini, tariximizni tahlil qilib, xolisona o'rganish imkoniyatiga ega bo'ldik. Istiqlol yillarida milliy ma'naviyatimizni tiklash, qadimiy tariximizni keng xalq ommasiga yetkazish borasida ulkan ezgu ishlar amalga oshirildi."Har qaysi xalq taraqqiyotini yuksaltirish uchun –tarixiy xotira masalasi alohida ahamiyat kasb etadi", - deya ta'kidlagan edi Birinchi Prezidentimiz o' asarlarida.

Sharq donishmandligining boy tajribalarini o'zlashtirgan va uni rivojlantirishga katta hissa qo'shgan Sohibqiron Amir Temurning jamiyat, davlat haqidagi fikrlariga nazar tashlasak, xalqning osoyishtalikda, baxtli yashashida va elini odilona boshqarishida eng asosiy ta'sir etuvchi omillarning

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

biri ma'rifat, ilm-fan sohalarini rivojlantirish deb hisoblanganini ko'ramiz. Sohibqironning fikricha, davlatni va undagi ijtimoiy hayotni boshqarishda , uni to'g'ri yo'nalishga solishda barcha narsalardan bilim, aql-zakovatustun bo'lishi lozim.Shu bois mutafakkir davlat ishlarining to'qqiz ulushi kengash va maslahat bilan hal etilishi zarur ekanligini ta'kidlagan edi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya**

Amir Temur kelajak avlodlarga qoldirgan "Tuzuklar"ida odamning shaxsiy hayotida, davlat ishlarida katta ahamiyatga ega bo'lgan tafakkur, aql bilan ish yuritish kabi xislatlariga doimo diqqat bilan qaragan.Sohibqiron davlat hayotida ilm-fan bajaradigan xizmatlarning ulug'ligini teran tushungan edi. "Men azaldan ilm shaydosiman", -deb qalbidagi fikrni aytishi uning jamiyatni rivojlantirish borasidagi to'g'ri yo'nalishni tanlaganini ko'rsatadi. Amir Temur ilm-fanning insonni, jamiyatni rivojlantirishdagi xizmatiga katta baho berib, yoshlarga ilm sirlarini bilishda muhim vazifalar yuklaydi.Ilmning odamni to'gri yo'lga boshlashini, insonni yetuk aqlga va fazilatga ega shaxs sifatida shakllantirishini, ayniqsa, nazarda tutgan va yoshlarning komil inson bo'lishiga ta'sir etadigan omillarning biri-uning bilim olishi deb tushungan Amir Temur Movaraunnahr poytaxti Samarqandda ilm va madaniyatning gullab-yashnashi uchun shaharga turli mamlakatlardan olimlar, hunarmadlar, quruvchi muhandislarni yiqqan. Shaharda fanlar akademiyasini ochib, davlatni har tomonlama rivojlantirish uchun katta ishlar qilgan. Tug'ilgan yeri Kesh(Shahrisabz) shahrida ilmga, odob-axloqning rivojlanishiga alohida e'tibor qaratib, uni O'rta Osiyoning ma'naviy markaziga aylantirdi. Shu bois Kesh shahri "Qubbbatul ilm val adab" nomiga sazovor bo'ldi.

Ayniqsa Temur davlat miqyosida va shaxsan o'zi ochgan bu masjid-madrasalarda bilim berish mazmunining sifatli bo'lishiga ham katta ahamiyat bergan. Ta'lim muasasalarida bilim olayotgan talabalarga "Qur'on"ning mazmunini , shu bilan birga, ta'lim oluvchi yoshlarga davlatning qonun-qoidalarini, shariatni o'rgatib, undan amalda foydalan bilishni, odob-axloq masalasida esa Muhammad ibn Abdulloh yaratgan hadislarni o'rganish va uni rahbarlikka olish zarurligini, shu uchta omil yoshlarning komil inson bo'lib yetishishini ta'minlaydigan ilm turlari deb hisoblagan.

Respublikamizda Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish ta'limni insonparvarlashtirish, bola shaxsini to'laqonli tushunish, uni hurmatlash, uning qiziqishi va qobiliyatini ro'yobga chiqarishga imkoniyat yaratish bilan birga insoniy sifatlarini shakllantirishni talab etadi.Jamiyatda inson omili har doim hal qiluvchi orin egallagani tufayli buyuk olim va mutafakkirlar ijodida , pand-nasihatlarida insonni tarbiyalsh, komil inson bo'lish g`oyasi asosiy g`oya sifatida ifoda etilgan, axloq-odob me'yori hisoblangan.

O'rta Osiyoning buyuk allomalari va mutafakkirlaridan biri Az-Zamashariy har bir insonning insonparvar, odamiylik fazilatiga ega bo'lishi, xushfe'l, samimiy , razil odamlarning insonga, jamiyatga foydasiz ekanligini ta'kidlab, insonlarni halol, rostgo'y, haqiqatgo'y va adolatli bo'lishga undaydi:"Quyosh nuri bekilmaydi, haqiqat shami so'nmaydi".

Komil inson tarbiyasi masalasi o'zbek adabiyotida doimo markaziy mavzulardan biri bo'lib kelgan. Jumladan, Alisher Navoiy, Ahmad Yassaviy, Abdulla Avloniy, Cho'lpon, Fitrat kabi mutafakkirlar o'z asarlarida axloq, ma'naviyat, ilm va kamolot masalalarini chuqur tahlil qilganlar.

Alisher Navoiy o'zining "Mahbub ul-qulub", "Xamsa" asarlarida insoniy fazilatlar, mehr-oqibat, halollik, adolat va sabr-toqat kabi komillikka eltuvchi xususiyatlarni ulug'laydi. Unga ko'ra, komil inson - bu el-yurt manfaatini o'z nafidan ustun qo'ygan shaxsdir.

Abdulla Avloniy esa "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida ta'lim-tarbiyani inson hayotining ajralmas qismi sifatida ko'rsatadi. Uningcha, axloqiy poklik va bilim olish komillikka yetaklovchi

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024



ikki asosiy omildir. Adib bu fikrlarni maktab ta'limi orqali yosh ongiga singdirish metodikasini ham ishlab chiqqan.

Tahlil metodologiyasi sifatida adabiy manbalarni tarixiy, badiiy-estetik va pedagogik jihatdan o'rganish usullari qo'llaniladi. Har bir asarda komil inson obrazini ochib berish orqali yozuvchining tarbiyaviy g'oyasi aniqlanadi. Shuningdek, zamonaviy adabiyotlarda ham bu an'analar davom etayotgani ko'zga tashlanadi. Masalan, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov she'riyati orqali insoniy fazilatlarni madh etgan.

**Natija va muhokamalar**

O'zbek adabiyotida komil inson timsoli doimo e'zozlangan. Adiblar buni faqat nazariy emas, balki hayotiy obrazlar orqali tasvirlab, kitobxon qalbiga singdira olganlar. Asarlar tarbiyaviy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi.

Muhokamalardan ma'lum bo'ldiki, buyuklar e'tirofi nafaqat axloqiy o'lchov, balki yoshlarni ruhiy jihatdan yetuk qilib tarbiyalashda eng samarali vositadir. Ular tomonidan ilgari surilgan fikrlar, bugungi o'quvchi-yoshlar uchun ibrat maktabi bo'lib xizmat qilmoqda.

Komil inson tarbiyasida shaxsiy namunalar, badiiy obrazlar orqali ta'sir o'tkazish, metodik yondashuvlar asosida tizimli ta'lim berish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, ota-ona, muallim, jamiyat va adabiyotning o'zaro hamkorligi bu jarayonni yanada samarali qiladi.

**Xulosa**

Komil inson tarbiyasi — bu bir kunlik emas, balki doimiy izlanish, mashaqqatli mehnat va yuksak ma'naviyat talab qiluvchi jarayondir. O'zbek adabiyoti bu borada boy tajribaga ega bo'lib, undagi buyuklar e'tirofi yosh avlod uchun bebaho manba hisoblanadi.

Ushbu maqolada tahlil etilgan adabiy asarlar shuni ko'rsatadiki, insonni komillikka eltuvchi yo'l – bu ma'rifat, axloq, halollik va yuksak maqsad sari intilishdir. Bugungi kunda bu qadriyatlarni yosh ongiga singdirish o'zbek adabiy merosi va buyuk mutafakkirlar e'tirofi orqali amalga oshirilsa, barkamol avlod tarbiyasiga katta hissa qo'shiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Amir Temur saltanati/B.Ermatov; Maxsus muharrir:X.Sulton; "O'zbekiston" 2016. 6-bet
2. Temur Tuzuklari. - Toshkent, Adabiyot va san'at nashriyoti, 1996-yil. 344 b.
Navoiy, Alisher. Mahbub ul-qulub
– Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1993. – 272 bet. – Betlar: 45–59
3. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. O'zbekiston nashriyoti. – Toshkent. 1992. Betlar: 12–36
4. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar (Devoni hikmat)
Movarounnahr. Toshkent: 2004. Betlar: 77–89
5. Abdulla Oripov. Saylanma. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Toshkent: 2001. Betlar: 115–130
6. Erkin Vohidov. Dil so'zlari. Sharq nashriyoti. -Toshkent: 1998. Betlar: 68–79
7. O'ktam Xoldorov. Pedagogik texnologiyalar. Fan va texnologiya, Toshkent. 210 bet. Betlar: 36–50.